“Infodars” uslubiy saytidan o‘quvchilar, informatika fani o‘qituvchulari, informatika fanini o‘rganuvchilar foydalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Хуторской А.В. Определение общепринятого содержания и ключевых компетенций как характерного нового подхода к конструированию новых образовательных стандартов [электронный ресурс]. А. В. Хуторской. Режим доступа: http://eidos.ru/journal/2002/0423.htm

(2). Игнатьева, Н.Г. Экономическая культура как фактор конкурентоспособности педагога. Н.Г. Игнатьева. Образование и саморазвитие, научный журнал, Казань, 2007, с. 63–72.

(3). Пунина Т.Г. Проектирование и размещение в сети Интернет- административных сайтов образовательных учреждений https://www. eruditor.io/file/185132/

(4). Мартьянов Е.Ю. Этика педагога в интернет-пространстве: методические рекомендации и этические основания создания персональных сайтов учителя. Школьная педагогика, 2015.

Usarov Begzod O‘ralovich (Termiz davlat Muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi; e-mail: usarovbegzod@mail.ru)

TANLANMADA SOFIZM

Annotatsiya. *Mazkur ishda insonlar hayotidagi savdo-sotiq ishlarini amalga oshirishda, oldi-sotdi borasida yo‘l qo‘yiladigan xato va kamchiliklar hamda biror-bir bajarilgan ish natijasida kelib chiqadigan xatolar debochasi bo‘lgan sofizmning o‘rni va roli kabi masalalar qisqacha o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *to‘plam, tanlanma, varianta, xato, usul, sofizm, bozor, meva, inson, ehtiyoj, savdo-sotiq, sotuvchi, xaridor, manfaat, so‘m, rang, reja.*

Усаров Бегзод Уралович (Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий, преподаватель кафедры «Точных и естественных наук»; e-mail: usarovbegzod@mail.ru)

СОФИЗМ В ВЫБОРКЕ

Аннотация. *В данной работе кратко рассмотрены такие вопросы, как ошибки и упущения в жизни людей, допущенные при осуществлении торговли, купли-продажи, а также роль и место софизма как предпосылки к ошибкам, вызванным какой-либо выполненной работой.*

Ключевые слова: *множество, выборка, вариант, ошибка, метод, софизм, рынок, фрукты, человек, потребность, торговля, продавец, покупатель, интерес, сум, цвет, план.*

Usarov Begzod O‘ralovich (university lecturer from the department of «exact and natural sciences», Termez state university of engineering and agrotechnology; e-mail: usarovbegzod@mail.ru)

SOPHISM IN THE SAMPLE STATISTIC

Annotation*. In the article, the researcher will discuss main features and roles of the sophism, core element appearing as a result of the rare accomplishments, miscalculations, deficiencies and shortcomings within trade procession as well as during commercial activities of the people’s social life.*

Key words: *set, sample statistic, ordered sample, error, method, sophism, market, fruits, people, need, trade, trader, buyer, profit, sum, color, plan.*

Kirish (Introduction). Ma’lumki, kundalik hayotimizda u yoki bu masalalar yechimlari ustida so‘z yuritayotganimizda, fikrimizning to‘g‘ri, aksincha, noto‘g‘riligini tasdiqlash uchun turlicha raqamli ma’lumotlarga, qolaversa, muammoli ziddiyatlik ro‘y berganda, albatta, turli-tuman o‘ziga xos, o‘ziga mos usullarga boy bo‘lgan tajribalarga murojaat qilamiz. Masalan, bosh to‘plamdan ajratib olingan tanlanma (tanlanma to‘plam)larni kuzatish jarayonida ko‘rsatkichlarning miqdorlarini ko‘zlanmasdan, shuningdek, kuzatish usullari va asboblarning kamchiliklari bilan bog‘liq bo‘lmagan holda yo‘l qo‘yilgan xatolar tasodifiydir. Tanlanmalarning barcha miqdorlari birliklarida tasodifiy xatolar turli ishoralarni qabul qiladi. Bunda ularning o‘zaro qisqarib ketish xususiyati kelib chiqadi. Demak, tanlanmaning miqdori oshgan yoki kamaygan sari tasodifiy xatolar ko‘payib yoki kamayib boradi.

Tanlanmalarda kuzatilayotgan tajribada miqdorlarning belgilangan parametrlari berilgan barcha tanlanmalarga tatbiq etilsa, kuzatish usuli natijasida muntazam xatolar kelib chiqishi mumkin. Muntazam xatolar, o‘z navbatida, ko‘zlanmagan va ko‘zlangan bo‘ladi. U holda o‘lchash asboblarining noaniqligidan, tanlash va kuzatish usullarining kamchiliklaridan ko‘zlanmagan muntazam xatolar, kuzatish natijalarini o‘zgartirib ko‘rsatish maqsadida qilingan xatolar natijasida esa ko‘zlangan muntazam xatolar kelib chiqadi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifatini oshirib ko‘rsatish uchun tanlanmada bosh to‘plamga nisbatan sifatli mahsulotlarning salmog‘ini sun’iy ravishda ko‘paytirishdan ko‘zlangan muntazam xato hosil bo‘ladi [2].

Shuni ham e'tirof etish kerakki, ba'zi bir hollarda tanlanmada kuzatish usuli natijasida shunday xatolar kelib chiqadiki, to'g'ri deb bilgan fikrni asoslovchi muhokamani odatdagi tasavvurga zid bo'lgan da'vo, ya'ni biror-bir bemani fikrni asoslovchi xulosaga kelish mumkin.

Fanda – biror g'irt bemani fikrni asoslovchi muhokama yoki xulosa, odatdagi tasavurlarga zid da'vo sofizm deb ataladi. Bunda yolg'on muhokama chin muhokamadek qilib ko'rsatiladi, yoxud hayot qonunlarini buzib, xulosa chiqariladi. Umuman olganda, sofizm ataylab chiqarilgan noto'g'ri xulosa, biror jumlaning noto'g'ri isbotidir. Bunda isbotdagi xato isbotning biror bosqichida ancha ustalik bilan bilintirmay yuboriladi.

Endi sofizmning inson hayotidagi o'rni va rolining ba'zi bir jihatlariga to'xtalsak. Masalan, bozordan biror bir ho'l meva xarid qildik, deylik. Sotuvchi tarozidan urmasligi mumkin, aslida, ho'l mevaning yeydigan qismiga pul to'lanishi kerak, lekin xarid qilinganda ho'l mevaning yeyiladigan qismi barobarida, uning po'chog'i uchun ham pul to'lanadi. Bundan tashqari, bozor rastalarida chaqilgan va chaqilmagan donaklar va hokazolar ... mana sizga sofizm!

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bugungi kunda bozorlarimizga kirar ekansan, har bir rastada meva-cheva mo'l-ko'l, noz-ne'matlar bisyorligidan yer yorilib jannat bog'idagi mevalar ko'z o'ngimizda namoyondek, yoxud ona zaminimizda ochil dasturxon yozilgan go'yo. Mehnatsevar xalqimizning risq-nasibasi doimo azal-azaldan butun bo'lgan, ko'z tegmasin ilohim, ming qatra shukr, deysan kishi. Har bir inson o'z ehtiyoji uchun savdo-sotiq ishlarini amalga oshirar ekan, xoh u sotuvchi bo'lsin, xoh u xaridor bo'lsin, ular bevosita bilib-bilmay ba'zi bir xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Bu esa shu kabi holatlarni anglagan insonlarning oldi-sotdi ishlarida anglashmovchilik natijasida, o'z navbatida, tortishuvlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shu boisdan yuqorida yuritilgan fikrlarning tub mohiyatini, qolaversa, savdo-sotiq ishlarini amalga oshirishda ko'plab tortishuvlarga sabab bo'ladigan holatlarni aniqlash va uning yechimini topish maqsadida ular uchun debocha bo'lib xizmat qiladigan masalalar, xususan, prof. S.Afonina tomonidan ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan bir masalani va uning yechimini e'tirof etaylik hamda shu masala haqida batavsil mulohaza yuritaylik:

"Bir so'm qani?" [3]

Ikki savatning har birida 30 tadan anor bo'lib, ular quyidagi baho bilan sotiladi: birinchi savatdagi anorlarning 3 tasi bir so'm, ikkinchi savatdagi anorlarning 2 tasi bir so'm. Sotuvchi ayol bu anorlarning $\frac{30}{3}+\frac{30}{2}=25$ so'mga sotishini hisobladi.

U quyidagicha mulohaza yuritdi: birinchi savatdagi anorlarning 3 tasi bir so'm, ikkinchi savatdagi anorlarning 2 tasi bir so'm. Demak, 5 ta anorni ikki so'mdan sotsam bo'ladi. Barcha anorlarni aralashtirib yubordi. Sotuvchi ayol anorlarni sotib bo'lgach, o'ylagandek, 25 so'm emas, 24 so'm bo'lganini payqadi. Haqiqatan, 60:5=12 (beshtadan), 2 so'm • 12=24 so'm. Bir so'm qani?

Tushuntirish. Birinchi savatdan 3 donadan 10 marta anor olish mumkin, ikkinchi savatdan esa 2 donadan 15 marta anor olish mumkin. O'nta 3 tadan olinganini (3 taliklar 10 ta edi) o'nta 2 tadan olingan anorlar bilan birlashtirib, har 5 tasini 2 so'mdan sotish mumkin bo'lgan o'nta beshtalik hosil qildik (2 so'm • 10=20 so'm). Ikkinchi savatda qolgan 10 ta anorning har 2 tasini bir so'mdan, ya'ni 5 so'mga sotish kerak edi. Sotuvchi ayol esa bu 10 ta anorni (5 tasini ikki so'mdan) to'rt so'mga sotdi. Natijada bir so'm zarar ko'rdi.

Yuqorida berilgan masalani va uning yechimini mazmunan hamda tub mohiyatini yoritish uchun mazkur maqolani aynan keltiraylik. Aslida, sotuvchi ayolning anorlarni sotishda yo'l qo'ygan xatosini qanday tushunish kerak? Buning uchun quyidagicha mulohaza yuritamiz:

$$\begin{cases} 2\,ta-1\,so'm \\ 3\,ta-1\,so'm \\ \hline 5\,ta-2\,so'm \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 1\,ta-\frac{1}{2}\,so'm \\ 1\,ta-\frac{1}{3}\,so'm \\ 1\,ta-\frac{2}{5}\,so'm \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 1\,ta-\frac{15}{30}\,so'm \\ 1\,ta-\frac{10}{30}\,so'm \\ 1\,ta-\frac{12}{30}\,so'm \end{cases}$$

Endi hosil bo'lgan kasrlarni taqqoslaymiz:

$$\frac{10}{30} < \frac{12}{30} < \frac{15}{30}$$

Agar anorlarning har bir donasini $\frac{10}{30}$ so‘mdan sotsa, 60 dona anor $60 \bullet \frac{10}{30}$ so‘m = 20 so‘m bo‘lib, 1 so‘m emas 5 so‘m zarar, agar $\frac{15}{30}$ so‘mdan sotsa, 60 dona anor $60 \bullet \frac{15}{30}$ so‘m = 30 so‘m bo‘ladi va u 5 so‘m foyda ko‘rgan bo‘lar edi. Binobarin, u 60 dona anorlarni aralashtirib, miqdorlarning o‘rtacha qiymati bo‘yicha anorlarning har bir donasini $\frac{12}{30}$ so‘mdan sotgan. Shuning uchun u 1 so‘m zarar ko‘rgan.

Bu yerda miqdorlarning qiymatlari e’tiborga olinmagan [4].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Endi n ta variantalarga ega bo‘lgan bosh to‘plamdan ajratib olingan bir necha tanlanmalarni qaraylik: berilgan x_i variantalar va ularga mos m_i miqdorlar hamda ularning qiymatlari s_i lar bo‘lib, $m_1 \neq m_2 \neq m_3 \neq \ldots \neq m_k$ deylik, u holda x_i lar uchun quyidagi munosabatni ko‘rib chiqaylik.

Agar berilgan tanlanmalarning x_1, x_2, x_3, … , x_k variantalari, mos ravishda, m_1, m_2, m_3, … , m_k miqdorlarga va s_1, s_2, s_3, … , s_k qiymatlarga ega, shu bilan birga, $r_1 = \frac{s_1}{m_1}$, $r_2 = \frac{s_2}{m_2}$, $r_3 = \frac{s_3}{m_3}$, … , $r_k = \frac{s_k}{m_k}$ nisbatlar hamda

$$r = \frac{s_1 + s_2 + s_3 + \ldots + s_k}{m_1 + m_2 + m_3 + \ldots + m_k} \qquad (1)$$

yoki

$$r = \frac{\sum_{i=1}^{k} s_i}{\sum_{i=1}^{k} m_i}$$

yig‘indi nisbat topilib, $\sum_{i=1}^{k} x_i r_i$ yig‘indi va $r \cdot \sum_{i=1}^{k} x_i$ ko‘paytma taqqoslansa, ular o‘rtasida muntazam xato paydo bo‘ladi. Bu yerda (1)-tenglikka “O‘zaro taqsimlangan miqdor” yoki “O‘rtacha taqsimlangan miqdor” deyiladi.

Muhokama. Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Endi bir necha masalalarni ilmiy, nazariy hamda amaliy dunyoqarashlar nuqtai nazardan ilmiy jamoatchilik e’tiboriga havola etaylik.

1-masala. Yoqub (A. S.) va Lobon ibn Baytuiyl (qaynotalari)ning o‘zaro kelishuvi asosida chorva mollarini taqsimlash masalasi.

Yoqub (A. S.) qaynotasinikida yana yetti yil xizmat qildi. Bu muddat tugaganidan keyin ham unikida qolib xizmat qilishda davom etdi. Lekin bu safar qalin puli uchun emas, balki ko‘plab sigirlar, qo‘ylar va echkilar egasi bo‘lish uchun ishladi. Natijada uning podasi Lobonnikidan ham ko‘payib ketdi. Shuncha boylik ustiga, u yana o‘n bitta o‘g‘il va bir qizlik ham bo‘ldi. Yoqub (A. S.) juda mamnun edi: Xudo uni tashlab qo‘ymagan va unga baraka bergan edi. Biroq ko‘p o‘tmay Lobon va o‘g‘illari uning boyligiga hasad qilayotganlarini sezib qoldi [5].

Ular o‘rtasida chorva mollarini taqsimlash quydagicha edi.

Yoqub (A. S.)ning boyib ketishining yana bir sababi o‘zining donoligi va zukkoligidir. Bu yo‘lda Yoqub (A. S.) bir hiyla ishlatadilar. Kelishuvga ko‘ra, ul zotning taklifiga binoan chorvadan tug‘ilajak buzoq va qo‘zi-yu uloqlarning to‘la-to‘kis bo‘lganini hamda bir xil ranglisi Lobonga, qolganlari esa Yoqub (A. S.)niki bo‘lishi edi …

Vaholanki, bir xil tusdagi ikki chorvadan tug‘ilajak qo‘zi-yu uloqlarning to‘la-to‘kis, rangining bir xil bo‘lish ehtimolidan turli-tuman bo‘lish ehtimoli yuqoriroqdir …

Endi tajriba sinov maqsadida chorvadan, masalan, bir juft qo‘chqor va qo‘yni hamda ulardan tug‘ilajak qo‘zining rangi turli-tuman bo‘lish ehtimoli yuqoriroq ekanligini ilmiy asoslaylik. Buning uchun biz bir masalaning yechimini emas, mazmunan e’tirof etaylik.

2-masala. Chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklarida jun va qorako‘l terilar yetishtirish uchun otarlarda, asosan, junining rangi kulrang qo‘ylar boqiladi. Chunki junning va mo‘ynaning kulrangi qorasiga qaraganda qimmatliroq baholanadi. Shuning uchun ham kulrang qo‘zilar olish uchun kulrang qo‘ylar kulrang qo‘chqorlar bilan chatishtirilgan [5].

Lekin, shu narsa ma’lum bo‘lganki, bunday chatishtirishlar o‘tkazilganda, kulrang qo‘zichoqlar bilan birga qora qo‘zichoqlar ham tug‘ilgan. Bundan tashqari, qo‘zichoqlar soni kutilganidan doimo anchagina kam bo‘lgan.

Kulrang qo‘zichoqlar va qora qo‘zichoqlarning tug‘ilish nisbati tekshirilganda, kulrang qo‘zichoqlar qora qo‘zichoqlarga nisbatan 2 barobar kamroq yoki 1 : 2 nisbatga tug‘ilishi bo‘lganligi aniqlangan. Keyinchalik, buning sababi aniqlanganda, kulrang qo‘y va qo‘chqorlar genotip bo‘yicha hamisha geterozigotali (Aa) ekanligi ma’lum bo‘ldi. Jun rangi bo‘yicha (AA) genotipli qo‘zichoqlar tug‘ilganidan keyin me’dadagi yetishmovchiliklar tufayli nobud bo‘lar ekan. Shuning uchun kulrang qo‘zichoqlarning genotipi (Aa) va qora qo‘zichoqlarning genotipi esa (aa) bo‘lar ekan.

Xo‘jalik qo‘zichoqlarni yetarli sonda olish uchun otarlarda qanday qo‘y va qo‘chqorlarni saqlashi ma’qulroq.

Mustaqil yechish uchun masalalar.

1-masala. (Ko‘chatlarni ekish masalasi). Bog‘ga har birida 60 tadan bo‘lgan ikki turdagi ko‘chatlarni uchta aka-ukalar ekishmoqchi bo‘lishdi, Ali birinchi turdagi 60 ta ko‘chatlarning har uchtasidan ikkitasini, Vali ikkinchi turdagi 60 ta ko‘chatlarning har beshtasidan uchtasini, Soli esa akalaridan qolgan jami 44 ta ko‘chatlarni ekmoqchi.

Shunda ular quyidagicha mulohaza yuritib kelishishdilar: birinchi turdagi ko‘chatlarning har uchtasidan ikkitasini, ikkinchi turdagi ko‘chatlarning har beshtasidan uchtasini, demak, barcha ko‘chatlarning har sakkiztasidan beshtasini Ali bilan Vali birgalikda, Soli esa 44 ta ko‘chatlarni ekishmoqchi. Barcha ko‘chatlarni aralashtirib yuborishdi. Aka-ukalar ko‘chatlarni ekib bo‘lgach, natijada 1 ta kochat ekilmay qoldi. Nima uchun shunday bo‘ldi?

2-masala. Har birida 120 tadan bo‘lgan 2 ta idishdagi sharlarni Ahmad oq va qoraga bo‘yamoqchi. Birinchi idishdagi sharlarning har beshtasidan bittasini oq, qolganlarini qoraga. Ikkinchi idishdagi sharlarni esa har uchtasidan bittasini oq, qolganlarini qoraga.

Shunda u quyidagicha mulohaza yuritdi. Birinchi idishdagi sharlarning har beshtasidan bittasini oq, ikkinchi idishdagi sharlarning har uchtasidan bittasini oq, demak, jami sharlarning har sakkiztasidan ikkitasini oqqa, qolgan barcha sharlarni qoraga bo‘yasam bo‘ladi. 2 ta idishdagi barcha sharlarni aralashtirib yubordi. Sharlarni bo‘yash ishlari tugagach, natijada u o‘ylagandek emas, balki oqqa bo‘yalgan sharlar soni 4 ta kam, qora sharlar soni esa 4 ta ko‘p bo‘ldi. Nima uchun shunday bo‘ldi?

3-masala (Yerni shudgor qilish masalasi). Ma’lum bir fermer xo‘jaligida, asosan, 3 ta yer bo‘lib, ular yer maydoni bo‘yicha birinchi yer ikkinchi yerdan 2 marta kichik, uchinchi yer esa ikkinchi yernikiga qaraganda $1,5$ marta katta.

Bu yerlarni traktorlarining ish quvvati har xil bo‘lgan 4 ta traktorchining shudgor qilish rejasi quyidagicha: birinchi traktorchi birinchi yer maydonining har 3 gektaridan 1 gektarini, ikkinchi traktorchi ikkinchi yer maydonining har 5 gektaridan 3 gektarini va uchinchi traktorchi uchinchi yer maydonining har 7 gektaridan 5 gektarini hamda to‘rtinchi traktorchi esa uchala yerdan qolgan barcha yer maydonlarini shudgorlashi kerak edi.

Lekin ular bu yerlarni kelishuv asosida shudgorlamoqchi bo‘lishdi. Shunda ular quyidagicha mulohaza yuritib kelishishdilar: birinchi yer maydonining har 3 gektaridan 1 gektarini, ikkinchi yer maydonining har 5 gektaridan 3 gektarini uchinchi yer maydonining har 7 gektaridan 5 gektarini, demak, jami uchala yerning har 15 gektaridan 9 gektarini birinchi, ikkinchi va uchinchi traktorchi birgalikda, to‘rtinchi traktorchi esa uchala yerdan qolgan barcha yerlarni shudgorlashini. Ma’lum vaqtdan so‘ng, shudgorlash ishlari yakunlandi. Natijada rejadagiga qaraganda birinchi, ikkinchi va uchinchi traktorchilar birgalikda ishlab 8 gektar kam, to‘rtinchi traktorchi esa 8 gektar ko‘p yerni shudgor qilgani ma’lum bo‘ldi. Nima uchun shunday bo‘ldi? Aslida, har bir traktorchi necha gektardan yerni shudgorlashi kerak edi?

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Quyida berilgan masalalar yuzasidan yuritilgan mulohazalardan shuni anglash mumkinki, obyektlarning har biri miqdori bo‘yicha qaralayotgan qiy-

matining katta parametri va kichik parametri aralashtirilib, yangi parametr olinib va uni berilgan obyektlarga tatbiq qilish, majoziy ma'noda yolg'onning rostga yoki rostning yolg'onga aylanishi demakdir.

Xulosa o'rnada shuni ham aytish mumkinki, tanlanmani kuzatish usuli mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holati, asosiy demografik tavsiflar, aholi bandligi, uning turmush darajasi, yashash sharoitlari, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat sohalaridagi ko'rsatkichlarini aniqlashda, tovar va xizmatlar iste'moli bozori, transport va aloqa xizmatlari haqida ma'lumotlarni tahlil qilishda qo'llaniladi.

Yuqorida aytilgan gaplardan sotuvchini yoki xaridorni, yoxud biror-bir bajarilgan ish natijasida kelib chiqqan xatolarni qo'shtirnoq ichida gapirmoqchi emasmiz, ammo yuqorida e'tirof etganimizdek, inson manfaatlari hamma narsadan ustundir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). S.Husanov. Internet materiallari asosida. Prezidentimizning nutqi "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun". "Xalq so'zi"–Xs.uz online. 2017-yil 18-iyun.

(2). Y.Abdullayev. "Statistika nazariyasi". Itstisodchi kadrlar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik (uchinchi nashri), Toshkent, "O'qituvchi", 2002, 53-bet.

(3). S.I.Afonina. "Matematika va go'zallik". Maktabda matematikadan sinfdan tashqi mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha qo'llanma, Toshkent, "O'qituvchi", 1987, 76–77-betlar.

(4). B.Usarov. "Termiz universiteti" gazetasi, 2020, 18-aprel, 15-bet.

(5). Kitobook.com (Internet (Google qidiruv) materiallari asosida). Hikoyalar. Muqaddas kitob. "Yoqub musofir yurtda". Ibtido kitobi. 29–30. 31-bob. 1–12-oyatlar.

(6). Sh.Turabekov, A.S.Almatov, G.J.Jalolov, A.K.Rahimov, S.U.Ibragimxodjaev, M.M.Ergashev. "Genetikadan masalalar to'plami va ularni yechish usullari". Uslubiy qo'llanma, qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri, Toshkent, 2013, 11-bet.

Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi; e-mail: mamadaliyeva.n@bk.ru)

SODDA GAP SHAKLIDAGI TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'zbek tilida sodda gap shaklidagi tez aytishlarning sintaktik tarkibini o'rganishga bag'ishlangan. Unda tez aytishlarning gap turlariga ko'ra sinflanishi, ularning tuzilishi va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqola davomida turli xil misollar keltirilgan bo'lib, ular orqali tez aytishlarning mantiqiy va estetik jihatlari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *tez aytishlar, sodda gap, sintaksis, o'zbek tili, tahlil, grammatik xususiyat.*

Маматалиева Навбахор Хужамбердиевна (преподаватель Термезского университета экономики и сервиса; e-mail: mamadaliyeva.n@bk.ru)

СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СКОРОГОВОРОК В ФОРМЕ ПРОСТЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

Аннотация. *Статья посвящена изучению синтаксической структуры простых предложений в узбекском языке. В ней анализируется классификация быстрых высказываний по типам предложений, их структура и грамматические особенности. На протяжении всей статьи приводятся различные примеры, посредством которых раскрываются логические и эстетические аспекты быстрых высказываний.*

Ключевые слова: *быстрые высказывания, простое предложение, синтаксис, узбекский язык, анализ, грамматическая особенность.*

Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna (Teacher at Termez University of Economics and Service; e-mail: mamadaliyeva.n@bk.ru)

SYNTACTIC FEATURES OF TONGUE TWISTERS IN THE FORM OF SIMPLE SENTENCES

Annotation. *This article is devoted to the study of the syntactic structure of simple sentences in the Uzbek language. It analyzes the classification of quick utterances according to sentence types, their structure and grammatical features. Throughout the article, various examples are presented, through which the logical and aesthetic aspects of fast sayings are revealed.*

Key words: *Quick sayings, simple sentence, syntax, Uzbek language, analysis, grammatical feature.*

Kirish (Introduction). O'zbek xalq og'zaki ijodida tez aytishlar alohida ahamiyatga ega. Ular nafaqat bolalar o'yin-kulgi shakli sifatida, balki xalqning nutq madaniyati, so'z boyligi va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyish etish vositasi sifatida ham e'tirof etiladi. Tez aytishlar xalq orasida tilning o'ziga xos estetik jihatlarini ifodalash, mantiqiy va grammatik qiyinchiliklarni yengish uchun maxsus til o'yinlari shaklida